


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


1/2023

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2023

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ		
Rasulov T.H., Dilmurodov E.B.,	Kompakt qo'zg'alishli umumlashgan Fridriks modelining ba'zi spektral xossalari	4
Ismoilova D.E.	Fermionli fok fazodagi uchinchi tartibli operatorli matritsaga mos kanal operator va uning spektri	9
Jumaev J.J., Tursunova S.F., Ibragimova Sh.E.,	Inverse coefficient problem for heat equation in the bounded domain	15
Djurayev D.R., Turayev A.A., To'rayev O.G'.	Bi _{1.7} Pb _{0.3} Sr ₂ Ca _n Cu _{n-1} O _y vismut asosli kupratlarning olinish texnologiyasi	21
Umarov Sh.A.	Shifrlash algoritmlarida kriptobardoshli mantiqiy amallardan foydalanish usullari	25
Axmedov O.C.	Свободные и вынужденные осесимметричные колебания систем вязкоупругих цилиндрических оболочек	30
Исломов Б.И., Жураев Ф.М.	Локальные краевые задачи для нагруженного уравнения параболо-гиперболического типа, вырождающегося внутри области	34
Амиров С.Ф, Шаропов Ш.А, Сатторов Т.А.	Дифференциал трансформатор датчиклар оддий ва махсус структурали нозичиқ магнит занжирларининг математик моделлари	43
Турдиев Х.Х., Суяров Т.Р., Наврүзова М.Н.	Начально-краевая задача для системы интегро-дифференциальных гиперболических уравнений	50
Tosheva N.A.	Lower bound of the essential spectrum of a family of 3×3 operator matrices	57
Akramova D.I.	Estimates for convolution operators related to A_∞ type singularities	63
Jo'raqulova F.M.	Bozonli fok fazodagi operatorli matritsaga mos Faddeyev tenglamasi	72
Rasulov T.H., Ne'matova Sh.B.	Umumlashgan Fridriks modeli kvadratik sonli tasvirining komponentlari	77
Seytov Sh.J., Ochilova G.B.	Баъзи даврий реакцияларнинг математик моделлари	82
Sirliyeva F.A., Khudaybergenov K.K., Muminov Z.E.	Fuzzy neural network and agent technologies in the structural-parametric modeling of technological systems	87
Tosheva N. A., Qodirov S. O.	Python dasturlash tili yordamida matritsa sonli tasvirini kompleks tekislikda tasvirlash algoritmi	93
Хасанов И.И., Хасанов К.Х.	Начально-краевая задача для адвекции - дисперсионного уравнения дробного порядка	100
Husenov B. E.	Poisson representation for $A(z)$ -harmonic functions belonging to some class	107
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Nigmatova L. X.	Lisoniy sistemaning pog'onaviyligi va unda gipo-giperonimik munosabatlar	116
Sadigova S.I.	Phraseological combinations with ordinal numbers in English	123
Abdulxayrov D.P.	-Gan ekan shaklining mazmuniy ko'rinishlari	127
Xodjayeva D.I., Hoshimova G.M.	Erkin Vohidov she'rlarida ritorik so'roq gaplarning o'ziga xos xususiyatlari	131

Ismatullayeva I.I.	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o'rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
Mehmonova Y. Ch.	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
Rajabov E.E.	O'zbek va ingliz tillaridagi "oila" tushunchasi konseptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
Ruziyeva N. X.	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
Xodjayeva D.I., Safarova M.H.	Ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyaning o'rni	157
Samandarova G.Y.	Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremlarning o'ziga xos xususiyatlari	161
Sayfullayev B.N.	Noqardosh tillarda o'zlashtirmalik (o'zbek va fransuz tillari misolida)	165
To'yboyeva Sh.R.	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
Абдурахманова М.У.	"Кўрлик" касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқиқи	174
Ахмедова М.Х.	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
Бахидова Ф.С.	Дискурса диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеланиши	183
Avezov S.S.	A Corpus-based approach to phraseology research	189
Kobilova A.B.	Ingliz va o'zbek tibbiy perifrazarlarining semantik mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.	Vocabulary of the Qur'an in the object of theolinguistics	203
Nazarova G.P.	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
Raxmatov A.P.	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatik ma'nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida)	215
Sayidova G.Y.	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o'xshatishlarning leksik-grammatik tabiati	221
Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
Бозоров З.А.	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
Мавлонова М.Д.	Инглизча ахборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлаштириш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ходисалари	245
Шарипова А.А.	Луғат корпусини яратиш технологияси	251
Hayotova D.Z.	Tushuncha va so'z munosabati	255
Mamatova D.M.	Xitoy tilida ta'm bildiruvchi sifatlar tahlili	259
Сафаров Ф.С.	Маънодошлик каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
Akhmedova D.B.	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Темирова Дж. Х.	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
Насруллаев Э.Ж.	Алишер Навоий "Ҳикмат ва ибрат достони"нинг ғоявий таҳлили	284
Шарипова Л.Ф.,	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадиий тасвир	288

Қаюмова Н.М.	воситаларининг қўлланиши	
Fayziyeva M.Ch.	Amerika va o'zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat g'oyalari talqini	292
Juraqulova G.M.	Biographic elements in "Jane Eyre" by Charlotte Brontë	296
Kadirova N.A.	Complex nature of the term "motif" in literary criticism, and the analysis of one of its variations on the example of the uzbek folk tale "Mokhistara"	300
Rakhmatova M.M., Fayziyeva Sh.R.	Literature review on the analysis of academic integrity challenges in muslim countries	304
Pulatova S.Sh.	Factors leading to family happiness in the short story "A marriage of convenience" by William Somerset Maugham	310
Xudoyev S.S.	Nemis adabiyotshunosligida topishmoq janrining tadqiq-u tavsifi	314
Zokirova N.S.	Tarjimada lingvokognitiv dunyo manzarasi, lingvistik ong va lingvistik anglashning o'zaro munosabatlari	319
Каримова Д.Х.	Таржимада вариантлик ва инвариантлик тушунчаларининг специфик хусусиятлари	324
Мамадиярова Ю.А.	Бадий таржимада меъморий экфрасис матнлар таҳлили	331
Содиқова Д.Т.	Муслихабегим Мискин шеърятининг образлар олами ва уларнинг поэтик функцияси	337
Rakhmatova Sh.B.	Reflection of feminism and ecofeminism in Dorris Lessing's work "The cleft"	345
Азимова М.С.	Садриддин Салим Бухорий ижодида ғазал жанри	349
Бабаев О.А.	Жалолиддин Румийнинг «Маснавийи маънавий» асарининг жаҳон адабиётида ўрганилиши	352
Тўраева Л.О.	Ўрим қўшиқларининг образлар таркиби ва бадий-композицион хусусиятлари	357
Хамдамова С.Б.	Уильям Батлер Йейтс ижодида модернистик шеъринг техникаларининг қўлланилиши	362
Bahronova B.B.	Badiiy adabiyotda ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayot talqini	368
Qodirova S.A.	"Devonu lug'otit turk" va "Zarbulmasal" asarlarida qo'llanilgan maqollarning qiyosiy-tipologik tahlili	372
Ражабов Т.А.	Замонавий ўзбек шеърятда бадий кўчимларнинг лисоний-бадий таҳлили	376
Норова Н.Б.	Усмон Кўчқор лирикасида тош ва тупроқ образларининг қўлланилиши	380
Qurbonova N.R., Mustafoyeva M.A.	Jahon adabiyotida sonet janri tadriji	384
Sayliyeva Z.R.	Ibrohim Haqqul asarlarida tasavvufga munosabat	389
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Olimova M.S.	Huvaydo she'riyatida tasavvuf ohanglari	395
Baxtiyorova G.M.	Ahmad Yassaviy toshbosmalarida Qur'on oyatlari talqini	400
"NAVOIY GULSHANI"		
Sayliyeva M.R.	About the artistic world of the great artist	405
HISTORY		
Safarli N.T.	Formation and development of higher education institutions in Nakhchivan during the Soviet era	408
Xaitov Sh. A., Ahmadov A.A.	XX asr boshlarida Rossiya-Afg'oniston savdo-sotiq aloqalari va Afg'oniston armiyasi D.N. Logofet talqinida	415

MULOQOTDA GENDER FARQ MUAMMOLARI XUSUSIDA

Nazarova Gulbahor Pirmanova;

dotsent

Buxoro davlat universiteti

g.p.nazarova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender farqning muloqotga ta'siri va ularning ta'sir omillari; gender farq munosabatini o'rganish borasidagi qarashlar hamda yondashuvlar, "defisit", "dominantlik", "farq", "diskursiv" yondashuvlar tahlili keltirilgan.

Ushbu yondashuvlar asosida erkak va ayollar nutqining farqli jihatlari ularning jamiyatdagi o'rni va xatti-harakatlariga asoslanganligi sababli qator tadqiqotlarda asoslangan. Nutqdagi gender farq gender stereotiplar iqtisodiy vaziyatlarning o'zgarishi asosida paydo bo'lish ehtimoli ham kuzatilgan.

Muloqotda gender farqni o'rganish jarayonida tilning eng faol elementi so'zlar bo'lganligi sababli erkaklar va ayollar nutqidagi farq so'z tanlovida ham ko'rinadi. Bundan tashqari, muloqot jarayonida suhbat mavzusini tanlashda ham bir qator farqlar namoyon bo'lgan. Nutq "to'siq"lari tushunchasi esa ko'proq ayollarga xosligi bir necha tadqiqotlarda namoyon bo'lgan.

Hazil-mutoyiba qilish jarayonida ham gender farqni kuzatish mumkin. Sotsio-lingvistik tadqiqotlar erkak va ayol hazil-mutoyiba qilish jarayonida erkaklar, asosan raqobat qilish maqsadida zarba beruvchi hazillardan, ayollar esa hayotiy voqealarga asoslangan hazillardan foydalanishadi. Muloqot jarayonida hayotiy tajribalarga asoslangan hazilomuz hikoyalardan foydalanish strategiyasi ko'proq ayollarga xos bo'lib, erkaklarga nisbatan ko'p ishlatiladi va bu orqali ayollar suhbatdoshiga pozitiv taassurot qoldirish maqsadida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: gender, defisit, dominantlik, farq, diskursiv yondashuv, mavqe, qarama-qarshilik, "to'siq" so'zlar, hazil-mutoyiba

Аннотация: В данной статье представлены влияние гендерных различий на коммуникацию и влияющие на них факторы, взгляды и подходы к изучению гендерных различий, анализ «дефицитного», «доминирующего», «различного», «дискурсивного» подходов.

На основе этих подходов различные аспекты мужской и женской речи основаны на ряде исследований, основанных на их роли и действиях в обществе. Также наблюдалась возможность гендерных различий в речи и возникновения гендерных стереотипов, основанных на изменении экономических условий.

Поскольку слова являются наиболее активным элементом языка в процессе изучения гендерного различия в общении, различие в речи мужчин и женщин просматривается и в выборе слов. Кроме того, в процессе общения также проявился ряд различий в выборе темы беседы. В нескольких исследованиях было обнаружено, что концепция речевых «барьеров» более характерна для женщин.

Гендерные различия можно наблюдать и в процессе шутки. Социолингвистические исследования мужских и женских шуток показывают, что мужчины используют шокирующие шутки в основном в соревновательных целях, тогда как женщины используют шутки, основанные на жизненных событиях. Стратегия использования юмористических рассказов, основанных на жизненном опыте, в процессе общения более характерна для женщин и используется чаще, чем у мужчин, и благодаря этому женщины используют её для того, чтобы произвести положительное впечатление на собеседника.

Ключевые слова: гендер, дефицит, доминирование, отличие, дискурсивный подход, позиция, противопоставление, «препятствующие» слова, юмор.

Abstract: This article presents the impact of gender differences on communication and the factors influencing them, views and approaches to the study of gender differences, analysis of "deficient", "dominant", "different", "discursive" approaches.

Based on these approaches, various aspects of male and female speech are based on a number of studies based on their role and actions in society. The possibility of gender differences in speech and the emergence of gender stereotypes based on changing economic conditions was also observed. Since words are the most active element of language in the process of studying gender differences in communication, the

difference in the speech of men and women is also visible in the choice of words. In addition, in the process of communication, a number of differences in the choice of the topic of conversation also appeared. Several studies have found that the concept of speech “hedgies” is more common among women.

Keywords: Gender differences can also be observed in the process of joking. Sociolinguistic studies of male and female jokes show that men use shocking jokes mainly for competitive purposes, while women use jokes based on life events. The strategy of using humor based on life experience in the process of communication is more typical for women and is used more often than men, and because of this, women use it to make a positive impression on the interlocutor.

Kirish. Ma'lumki, kundalik hayotimizning nutq va muloqot jarayonida tildan foydalanishdagi gender farqning ta'sirini o'rganish ayni paytda keng tarqalgan tadqiqot mavzularidan biriga aylandi. Til va gender farqning ta'sir munosabati 1970-yillarning boshidan boshlab sotsiolingvistikaning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar muloqot jarayonida erkak va ayol nutqi o'rtasida lug'at, ohang, sintaktik tuzilish va so'zlashuv uslubida farqlanishini dalillangan.

Lakoff R, Tanin D, Kameron M kabi taniqli tilshunoslar sotsiolingvistika tadqiqotlari nuqtayi nazaridan o'z tadqiqotlarida talaffuz, intonatsiya, lug'at va nutq uslubidagi gender farqlarni o'rganib, bu farqlarning kelib chiqish omillarini hamda ushbu omillarning o'zgarish sabablarini tahlil qilgan. Lakoff va Tanin til va gender farq munosabatini o'rganish xususidagi qarashlarini quyidagi to'rt yondashuvga asoslanib ifoda etgan: 1. “Defisit” 2. “Dominantlik” 3. “Farq” 4. “Diskursiv”. Nutq va muloqotda gender farqni o'rganishdagi to'rt yondashuvda “Defisit”, “Dominantlik” va “Farq” yondashuvlari jinsning fiziologik ustunligida bilinsa, “Diskursiv” yondashuv muloqotdagi gender farq tilning madaniy doirada o'zgarishi ta'sirini o'rganadi.[7, 56]

Lakoff “defisit” yondashuvga asoslanib, erkaklarning nutqi kuchliroq, yanada obro'li va jamiyatda ko'proq ma'qullangan nutq ekanligi, ayollar nutqi esa ularning nafaqat tilda, balki va hatti-harakatlarida ham o'zlarini “xonim” lardek tutishi hamda jamiyatda ayollarning “kuchli” bo'lishni istisno qilinganligi sababli erkaklarga nisbatan kuchsiz nutq egalari ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, “noaniqlik, ishonchsizlik va haddan tashqari hurmat yoki xushmuomalalikni ifodalovchi” xususiyatlari bilan ayollarning nutq uslubi erkaklar nutqidan ajratib turadi.

Asosiy qism. Nutq va muloqotda gender farq “Dominantlik” yondashuviga asoslanib o'rganilganda, jamiyatdagi erkaklarning “hukmronlik” xususiyati aynan nutqda ham “dominantlik” xususiyatini keltirib chiqaradi. Lakoff ushbu yondashuvga asoslangan tadqiqot natijalari “yakuniy so'z sifatida emas, balki keyingi tadqiqotlar uchun vosita sifatida” taqdim etdi. [5, 45] Talbot esa bu yondashuvni “patriarxal ijtimoiy tuzumning ko'rinishlari” sifatida tanqid qilib, bu yondashuvni “Farq” yondashuvi bilan bir qatorda qo'yish mumkin, degan xulosaga keldi.

Tadqiqot metodlari. Nutq va muloqotda gender farqni o'rganishdagi uchinchi yondashuv “Farq” yondashuvi bo'lin, uni Tannen o'z tadqiqotlarida ommalashtirdi.[7, 47] Ushbu yondashuv Tannen fikricha, ayol va erkak nutqi quyidagi qarama-qarshi xususiyatlarda farqlanadi:

1. Mavqe ↔ Qo'llab-quvvatlash
2. Mustaqillik ↔ Tobelik
3. Maslahat ↔ Tushunish
4. Axborotni to'g'ri qabul qilish ↔ His-tuyg'ularga berilish
5. Buyruq ↔ Taklif
6. Mojaro ↔ Kompramis (kelishuv)

Yuqoridagi xususiyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, erkaklar nutqida jamiyatda tutgan o'rnining ta'sirini ko'rish mumkin. Ya'ni ayollar muloqotga kirishganda tinglovchi tomonidan olib borilayotgan muloqotni qo'llab-quvvatlashga muhtojligi seziladi va shu orqali ayol nutqini davom ettirishga ko'maklashgan bo'ladi. Erkaklar esa muloqot davomida ayollarga nisbatan dadilroq va o'ziga ishonchi ko'proq ekanligi kuzatiladi. Erkaklar nutqida buyruq ohangi, ayollarda esa taklif berish ohagini sezish mumkin. Muloqot davomida erkaklarda mojaroga kirishishga moyillik sezilsa, ayollar kelishuvga va har qanday vaziyatda ham bitim tuzishga tayyorlik ohangini ko'rish mumkin.

Til va gender tadqiqotlarining “Diskursiv” yondashuviga asoslangan o'rganishlar natijasi tilshunos Debora Kameronning izlanishlari diqqatga loyiqdir.[1,138] Uning fikricha, gender stereotiplar iqtisodiy vaziyatlarning o'zgarishi asosida paydo bo'ladi. Tilshunos patriarxiyaga xos bo'lgan kuch tuzilmalari shu kuch bilan izohlanadigan gender xatti-harakatlarini yaratishini va patriarxal mafkuraning muloqotga qanchalik ta'sir qilishini ta'kidlaydi va “Diskursiv” yondashuv til va gender farqni o'rganishda sotsiologik omillar hisobga olinishi muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot natijalari. Muloqotda gender farqlari o'rganish jarayonida tilning eng faol elementi so'zlar bo'lganligi sababli erkaklar va ayollar nutqidagi farq so'z tanlovida ham ko'rinadi. Bu borada Lakoffning ayollarning so'z boyligi erkaklardan ustun turishini ta'kidlovchi fikr e'toborni tortadi. Tilshunosning ta'kidlashicha, jamiyatda ayollar erkaklar kam vaqtini sarflaydigan faoliyatlar, masalan, xarid qilish, sovg'a tanlash kabilarga ko'proq vaqt sarflaydi. Sovg'a tanlaganda yoki kiyim xarid qilganda ayollar rangga ko'proq e'tibor berishadi va erkaklar lug'at boyligida bo'lmagan ranglar aynan ayollar nutqida kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi rang bildiruvchi so'zlar tizimida *azure* - moviy ko'k, *mauve* - siyoh rang, *aquamarine* - ko'k-yashil kabi ranglar erkaklarga tushunarsiz bo'lishi aniq. Yoki, ingliz tilidagi sifatlar qatoridagi *adorable*, *charming*, *lovely*, *fantastic*, *heavenly* kabi sifatlar erkaklar nutqida kam uchraydi.

Tadqiqotchilar Ning va Day erkak va ayollar suhbat mavzusinni tanlashda ham farqlanishini aniqlagan. [6, 38] Masalan, erkaklar ko'p hollarda siyosat va iqtisod mavzusini tanlashsa, ayollar oila va ta'limga oid mavzularda suhbatni afzal ko'rishadi. Albatta, bunga ayollarning oila va farzand tarbiyasi bilan erkaklarga nisbatan ko'proq mashg'ul bo'lishlari sabab qilib ko'rsatilgan. Tilshunos Karlsson ayol va erkak nutqida ishlatiladigan so'zlar quyidagicha tasniflaydi:

Erkaklar nutqida ishlatiladigan so'zlar	Ayollar nutqida ishlatiladigan so'zlar
Taboo so'zlar: God damn it!	Kuchaytiruvchilar: <i>so</i> , <i>such</i>
Buyruq gaplar: "Hand me the sport magazine by the sofa!"	Kirish so'zlar: I think, you know, I really, I mean, I suppose
Muloqotni boshqarish uchun strategiyalar	Ajratilgan so'roq gaplar: You didn't- did you?
Qisqa javoblar: yeah, mhm, right	Qisqa javoblar: yeah, mhm, right

Tilshunoslar tadqiqotlarida muloqot davomida gender farq "hedge", ya'ni nutq "to'siq"larini ko'proq ayollar nutqida uchratish mumkinligini aniqlagan. [3, 31] Bunday "to'siq" larga "maybe", "sort of", "I mean" iboralarini kiritish mumkin. Ushbu so'z birikmalarining "hedge" deb nomlanishiga sabab, "to hedge your bets", ya'ni biror narsaga pul tikkada o'z-o'zini himoya qilish, yutqazishdan "to'siq"lash ma'nosidagi frazeologik birikmadan olingan. Muloqot davomida qat'iy fikrdan qochish maqsadida nutqda ishlatiladigan so'zlar hisoblanadi. Ushbu so'zlar guruhiga turli xil lingvistik tuzilishlarni kiritish mumkin. Masalan, modal birikmalar (may, might, could), ravishlar (perhaps, probably, possibly), nutq belgilari (I mean, I think) kabilar. Nutq "to'siq"lari muloqotda bir necha maqsadda ishlatiladi:

1. Ishonch/ikkilanish
2. Suhbatdoshga nisbatan xayrixohlik
3. Mos so'zni tanlash
4. Suhbat mavzusi borasida mutaxassis emasligini ko'rsatish

Muloqot jarayonida ishonch yoki ikkilanishni ifodalash uchun ko'p hollarda "maybe", "might", "could" iboralari ishlatiladi va shu orqali suhbatdosh bildirilayotgan fikrga qanchalik ishonishi yoki ikkilanishini ko'rsatadi. Masalan,

A: But you know, she is Korean but she hasn't got any accents

B: Maybe she had lived in US for many years.

Yuqorida keltirilgan suhbatda qizning koreyalik bo'lishiga qaramay, nutqida Koreyscha aksent sezilmasligini aytganda, ikkinchi suhbatdosh balki u ko'p yillardan beri AQSH da yashab kelayotgandir degan taxminni keltiradi va gap boshida ikkilanishini "maybe" orqali ifodalaydi. Ya'ni, ushbu "to'siq" so'z ishlatilmaganda, fikrga asos keltirilishi kerak bo'ladi. Suhbatdoshning so'zlari taxmin va asosga ega bo'lmaganligi sababli ushbu so'zdan foydalangan degan xulosaga kelindi.

Muloqot jarayonida biz faqat suhbat qurish yoki suhbatdoshga javob berish uchun emas, balki suhbatdoshimizga xayrixoh ekanligimizni bildirish uchun ham ushbu "to'siq" so'zlarda foydalanamiz. Bunday holatlarad "sort of", "kind of", "really" kabi so'zlar qo'llaniladi. Suhbatdoshga xayrixohlikni ko'rsatish uchun "hedge" lardan foydalanishni ushbu misolda ko'rish mumkin:

Brittany: She sounds very sort of um- kind of unhappy

Bu gapdagi "sort of", "kind of" birikmalaridan tasvirlanayotgan kishining biroz baxtsiz tuyulganini xayrixohlik bilan, ya'ni, tasvirlanayotgan kishini ranjitmaslik maqsadida foydalanilgan. So'zlovchi balkim tasvirlayotgan kishini faqatgina ovozi orqali ushbu xulosaga kelganini ushbu so'zlar orqali yumshatish =ga harakat qilgan.

“To’siq” so’zlar juda ko’p hollarda kerakli so’zni qidirib, mos so’zni tanlay olmagan vaziyatlarda ham ishlatiladi.

(talking about a TV program about apes)

BEA: he (orang-utan) had you know- he had five very adequate manip- what ever you would call hands and things. [3, 37]

Ushbu misolda so’zlovchi orangutanlar haqidagi teledasturda ularning beshta barmoqlari borligini aytmoqchi bo’lganda avval “he had five very adequate manip” degandan so’ng, ushbu so’z qanchalik to’g’ri tanlanganligini bilmaganligini ko’rsatish maqsadida “what ever you would call” deb o’z-o’zini tuzatadi. Ya’ni “what ever you would call” (nima deb aytishadi) iborasi kerakli so’zni topa olmaganligini ko’rsatish maqsadida ishlatiladi. So’zlovchi sifatida muloqot olib boruvchilar kerakli va aynan mos so’zni tanlashga harakat qiladi, ammo, aynan mos so’z lug’atda topilmasligi sababli uni boshqacha tuhsuntirishga harakat qiladi. Mos so’zni qidirish yollarga suhbatiga xos bo’lgan xususiyat bo’lib, “to’siq” so’zlardan foydalanish suhbatni davom ettirishga ko’maklashuvchi vosita hisoblanadi.

Muloqoti davomida suhbat mavzusida qanchalik mutaxassis ekanligi va mavzu haqida ma’lumotlar ko’p ekanligini ko’rsatish erkaklar o’rtasifagi suhbatga xos xususiyatdir. Ayollar, aksinacha, tansih bo’lmagan mavzuda suhbatlashayotganda, o’zining qanchalik mavzudan xabardor emasligini bildirish uchuh ham “to’siq” so’zlardan foydalanadi. Bunday vaziyatlarda ko’pincha “I mean”, “I am sure”, “I mean I am not saying” kabi iboralar qo’llanilishi kuzatiladi. Ayollar uchun muloqot davomida ijtimoiy masofani saqlash muhim bo’lganligi sababli yuqorida keltirilgan “to’siq” so’zlardan foydalanish eng qulay strategiya hisoblaniladi. “To’siq” so’zlardan foydalanishning erkaklardan ko’ra ko’proq ayollarga xos ekanligining uch sababi keltirilgan:

1. Nozik mavzularda munozara olib borish
2. Hissiyotlarni oshkora namoyon etish
3. Hamkorlikka zamin tayyorlash va ochiq muloqotga zaruriyat

Umuman olganda, “to’siq” so’zlar ayollar muloqotida juda muhim o’rin egallaydi. Bu muloqot vositalari muloqotni ochiqlikda olib orish hamda turli xil munozarali vaziyatlardan qochishga ko’maklashadi.

Bundan tashqari, shuni ta’kidlash joizki, gender farqni hazil-mutoyiba qilish jarayonida ham kuzatish mumkin. Sotsio-lingvistik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, erkak va ayol hazil-mutoyiba qilish jarayonida erkaklar, asosan raqobat qilish maqsadida zarba beruvchi hazillardan foydalansa, ayollar esa hayotiy voqealarga asoslangan hazillardan foydalanishadi. [3, 228]. Muloqot jarayonida hayotiy tajribalarga asoslangan hazilomuz hikoyalardan foydalanish strategiyasi ko’proq ayollarga xos bo’lib, erkakalarga nisbatan ko’p ishlatiladi va bu orqali ayollar suhbatdoshiga pozitiv taassurot qoldirish maqsadida amalga oshiriladi. Suhbat davomida hazil yoki hayotiy latifalardan foydalanishning bir necha funksiyalari aniqlangan. Jennifer Hayning fikricha, ayollar shaxsiy hayotidagi hazilomuz voqealarni aytib berish suhbatdoshi xoh erkak, xoh ayol bo’lmasin, ular orasida hamjihatlikni shakllantirishga qaratilgan bo’ladi. Muloqot paytida o’zini aqlli ko’rsatishga intilish ko’proq erkaklarga xos bo’ganligi sababli, ular ko’p hollarda raqobatlashishga qaratilgan bo’ladi. Ushbu borada Holmes va bir qator tadqiqotchilar olib borgan tadqiqot natijalari ham e’tiborga molik. Turli xil yig’ilish va tadbirlarda erkak va ayollar muloqoti kuzatilganda, uning qatnashuvchilari qaysi jins vakillari ekanligiga ham bog’liq ekanligi aniqlangan. Tadbir qatnashuvchilari barchasi ayollar yoki ayol qatnashchilar soni erkaklardan oshganda vaziyatda hazil-mutoyibalar ko’proq bo’lishi kuzatilgan. Yig’ilish raisi qaysi jins vakili bo’lishi ham hazil-mutoyibaning ishlatilishiga ta’sir ko’rsatishi mumkin, ya’ni, ayol kishi boshqargan yig’ilishlarda ko’proq hazil-mutoyibalardan foydalanilishi kuzatilgan. Aksincha, faqat erkaklardan tashkil topgan yig’ilishi va tadbirlarda hazil-mutoyibalar kamroq kuzatilishi aniqlangan.

Tadqiqotlar natijasida, Jennifer Hay muloqotda hazil-mutoyiba, latifalardan foydalanishning uch asosiy funksiyasini aniqlagan. [3, 230]

1. Kuchlilik farqini ta’kidlash
2. O’z-ozini himoya qilish
3. Guruhda hamjihatlikni shakllantirish.

Kuchlilik farqini ta’kidlash maqsadida aytiladigan hazillardan quyidagini keltirish mumkin. Masalan, poyezdda uch ayol va bir erkak poyezdda suhbat qurib, ayollar o’z kasbiy faoliyatlari haqida so’zlashayotganda, erkak kishi quyidagi hazil orqali suhbatni bo’ladi:

Man: What’s the difference between a feminist and bin liner? A bin liner gets taken out once a week.

(*Feminist va axlat qutisi o'rtasida qanday farq mavjud deb o'ylaysiz? Axlat qutisi bo'shatilish uchun haftada bir marta olib ketiladi*) [3, 231]

Ushbu hazil, albatta, hech qanday kulguga sabab bo'lmaydi, balki ayollarning suhbatni to'xtatib, o'zining ishi bilan mashg'ul bo'lishga sabab bo'ladi. Erkak ushbu hazil orqali ayollarni zaif ekanligi va hatto ularni axlat qutisi bilan tenglashtirganligi erkakning o'zining kuchli jins vakil ekanligini ko'rsatishga intilishini namoyon etadi. Bu ko'rinishdagi hazil-mutoyibadan keyin vaziyat salbiy tomonga o'zgarganligini hisobga olib, erkak suhbatdosh suhbatni boshqa mavzuga o'tkazishga harakat qiladi.

Xulosa. Suhbat davomida hazilomuz hikoyalardan guruhda hamjihatlikni shakllantirish maqsadida foydalanish jamiyatda eng ko'p uchraydigan funksiya bo'lib, norasmiy muloqot jarayonida yaxshi ijtimoiy munosabatlarni saqlash uchun ishlatiladi. Sotsiolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hazillardan ushbu maqsadda foydalanish asosan erkaklarga nisbatan ayollarga xosdir. Ya'ni erkaklar o'zining kuchli jins vakillari bo'lganliklari uchun hazillardan faqat kuchliligini ta'kidlashda va raqobatni ko'rsatishda foydalanadi. Ayollar esa, aksincha, qo'llab-quvvatlanishga moyilligi sababli suhbat davomida hamjihatlikka erishishga harakat qilishadi va hazilomuz hikoyalardan shu maqsadda foydalanishadi. Janet Holms ushbu xususiyatni sotsiolingvistik universallik, deb hisoblash ehtimolligi borligini ta'kidlaydi.

Muloqot davomida o'z-o'zini himoya qilish maqsadidagi hazilomuz hikoyalarni kundalik hayotda ko'p uchraydi. Masalan, shifoxonada nazoratdan o'tayotgan ayol va rentgen mutaxassisi o'rtasidagi suhbat:

Radiology technician: Need your arm outta your right sleeve

Patient: Sorry, I'm just standing here for mother to tell me what to do!

Ushbu parchada rentgen mutaxassisi ayolga ko'rsatmalar berish jarayonida ayol kasal bo'lganligiga qaramay, "oyimning menga shuni aytishini kutayotgan edim", deb o'zini kichkina bola sifatida ko'rsatishga harakat qilgani va o'zining yomon ahvolda ekanligini yashirishga harakat qilayotganini kuzatish mumkin. Shu orqali o'z-o'zini himoya qilishga erishayotgani namoyon bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, insoniyat tildan shaxsiy yoki ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muayyan maqsadga erishish uchun foydalanadi va ijtimoiy muhit tufayli tildan foydalanishning cheklanishi asosan gender farqini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy kontekst gender va tilning o'rtasidagi muhim bog'liqlik hisoblanadi. Suhbatdoshning muloqot davomidagi so'zlashuvi kishilarning ijtimoiy muhitdagi bajaradigan roli bilan ham farqlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Cameron, D. *Gender and Language Ideologies*. Oxford: Blackwell. 2003
2. Coates Jennifer. *Women, Men and Language*. Pearson, Longman. 2004
3. Coates Jennifer. *Women, Men and Everyday talk*. Palgrave, Macmillan. 2013
4. Karlsson, S. *Gender- related Differences in Language Use*. 2007
5. Lakoff, R. *Language and Woman's Place*. *Language in Society*, 2(1), New York: Harper and Row. 1975
6. Ning, H., & Dai, X. *On Gender Difference in English Language and Its Causes*. *Asian Social Science*, 6(2), 2010.
7. Tannen, D. *Gender and Conversational Interaction*. Oxford University Press. 1993.
8. Tannen, D. *You just don't understand: Women and men in conversation*. New York: Ballantine. 1990.